O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
SURXONDARYO VILOYATI TERMIZ TUMANI HOKIMINING

# Q A R O R I

Termiz tumani, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 191200, tel.: (+99876) 36-32-200, faks.: (+99876) 36-32-200, termiz.t@exat.uz

2021 - yil 17 - sentabr 145-8-117-Q/21 Termiz tuman hokimligi

## Termiz tuman hokimining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlarini bekor qilish to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘z ahamiyatini yo‘qotgan qonunchilik hujjatlarini qayta ko‘rib chiqish tizimini joriy etish orqali mamlakatda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash chora-tadbirlari to‘g‘risida” 2020 yil 27 sentyabrdagi PF–6075-son Farmoni ijrosini ta’minlash maqsadida “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 24 va 25-moddalariga asosan

## Q A R O R Q I L A D I:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 27 sentyabrdagi PF–6075-son Farmonida 2021 yil 1 iyunga qadar mahalliy davlat hokimiyati organlarining eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ-huquqiy hujjatlarini bekor qilish choralarini ko‘rish belgilanganligi inobatga olinsin.

2. Termiz tuman hokimi tomonidan qabul qilingan eskirgan va o‘z ahamiyatini yo‘qotgan normativ tusdagi qarorlar ilovaga muvofiq o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Matbuot xizmati G‘.Bo‘riev mazkur qarorning rasmiy e’lon qilinishini va hokimlikning rasmiy veb-saytiga joylashtirilishini ta’minlasin.

4. Mazkur qaror rasman e’lon qilingandan keyin kuchga kirishi belgilansin.

5. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish tuman hokimining birinchi o‘rinbosari SH.Qalandarov zimmasiga yuklatilsin.

**Термиз туман ҳокими** **URINOV S. B.**

Термиз туман ҳокимининг
2021 йил 17 сентябрдаги
145-8-117-Q/21-сон қарорига
1-илова

Termiz tuman hokimining

2021 yil ____dagi .....-son
qaroriga

ILOVA

**Termiz tuman hokimining o‘z kuchini yo‘qotgan deb e’tirof etilayotgan ayrim qarorlari**

**RO‘YXATI**

**1.** Termiz tuman hokimining «O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 31 yanvardagi 54-sonli qaroriga asosan tuman hududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalarini 2012 yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida» 2012 yil 14 sentyabrdagi 927-son qarori.

**2.** Termiz tuman hokimining «Traktorlar, o‘ziyurar shassilar, meliorativ yo‘l qurilish mashinalari va traktorlarini majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida» 2012 yil 14 sentyabrdagi 928-son qarori.

**3.** Termiz tuman hokimining «Termiz tumanidagi ijtimoiy muhofazaga muhtoj va ish topishda qiynalayotgan shaxslarni ishga joylashtirish uchun ish o‘rinlarini band qilib qo‘yish to‘g‘risida» 2012 yil 17 oktyabrdagi 1009-son qarori.

**4.** Termiz tumani hokimining «Termiz tumanida aholi punktlarini obodonlashtirish ishlarini tashkil qilishni takomillashtirish to‘g‘risida» 2014 yil 29 yanvardagi 62-son qarori.

**5.** Termiz tumani hokimining «Tuman hududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalarini 2014 yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida» 2014 yil 24 fevraldagi 179-son qarori.

**6.** Termiz tumani hokimining «Termiz tumanidagi qishloq xo‘jaligi va meliorativ texnikalarni, shuningdek, mashina-traktor parklari, ustaxonalar va servis punktlarining asbob-uskunalarini 2015 yil davomida majburiy texnik ko‘rikdan

o‘tkazish to‘g‘risida» 2015 yil 16 yanvardagi 47-son qarori.

**7.** Termiz tumani hokimining «Tuman hududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalarini 2017 yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida» 2017 yil 2 martdagi 244-son qarori.

**8.** Termiz tuman hokimining «Tuman xududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalarini 2019 yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida»gi 2019 yil 14 martdagi Q-1307-son qarori.

**9.** Termiz tuman hokimining «Termiz tumanidagi qishloq xo‘jaligi va meliorativ texnikalarni, shuningdek mashina-traktor parklari, ustaxonalar va servis punktlarining asbob-uskunalarini 2019 yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida»gi 2019 yil 14 martdagi Q-1308-son qarori.

**10.** Termiz tumani hokimining «Viloyat hokimining 2020 yil 6 yanvardagi «Surxondaryo viloyatida dam olish kunlari savdo yarmarkalari faoliyatini samarali yo‘lga qo‘yish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Q-6-sonli qarorining ijrosini ta’minlash haqida» 2020 yil 7 yanvardagi Q-18-son qarori.

**11.** Termiz tumani hokimining «Tuman xududidagi barcha yuridik va jismoniy shaxslarga tegishli bo‘lgan avtomototransport vositalarini 2020 yilda majburiy texnik ko‘rikdan o‘tkazish to‘g‘risida» 2020 yil 10 fevraldagi Q-215-son qarori.